



OSHQOZON YARASINI TASHXISLASHDA BARIY BILAN
RENTGENOSKOPIYANING AHAMIYATI

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Xamidova M.A, Kamoliddinova N.K.

Toshkent shahar

Kamoliddinova Nafisa Kamoliddinovna

+998 50 701 09 07

Dolzarbligi

Oshqozon yarasi global miqyosda keng tarqalgan gastroenterologik kasalliklardan biri bo'lib , aholining 5-10% qismi hayoti davomida ushbu patologiya bilan to'qnashadi.Zamonaviy diagnostikada FGDS asosiy usul hisoblansa-da , bariy bilan rentgenoskopiya morfologik o'zgarishlarni aniqlash , yara joylashuvi va deformatsiyalarni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda bariyli kontrast tekshiruvining sezgirligi o'rtacha 75-85% atrofida ekani qayd etilgan.

Maqsad:Bariy bilan rentgenoskopiyaning oshqozon yarasini aniqlashdagi diagnostik samaradorligini baholash.

Material va metodlar:Tadqiqot 2025-yilda Qarshi shahridagi ko'p tarmoqli shifoxonaning radiologiya bo'limida o'tkazildi.

Tadqiqotga epigastral og'riq va dispeptik shikoyatlar bilan murojaat qilgan 40 nafar bemor kiritildi.Barcha bemorlarga bariy sulfat kontrasti bilan rentgenoskopiya , keyinchalik FGDS tekshiruvi (tasdiqlovchi metod sifatida) o'tkazildi.Rentgenologik baholashda yara uchun xos „nisha simptomi“, Hampton chizig'i , shilliq qavat relyefi buzulishi, kontur deformatsiyasi hamda kontrast moddaning evakuatsiya tezligi o'rganildi.

Natijalar: Tadqiqotga kiritilgan 40 nafar bemorning FGDS natijalariga ko'ra 25 nafarida (62,5%) oshqozon yarasi tasdiqlandi. Bariy bilan



rentgenoskopiya orqali ushbu 25 nafar bemorning 21 nafarida yara belgilarini aniqlash mumkin bo'ldi, bu usulning sezgirligi 84% ni tashkil etdi. 4 nafar bemorda(16%) kichik o'lchamli yoki yuzaki yaralar rentgenologik aniqlanmadi, ular soxta manfiy natija sifatida baholandi.

Yara aniqlanmagan 15 nafar bemordan 13 nafarida rentgenologik tekshiruv natijalari FGDS bilan mos keldi. 2 nafar bemorda esa rentgenologik jihatdan yara gumonini tu'g'diruvchi belgilar kuzatilgan bo'lsa-da, endoskopiya orqali yara tasdiqlanmadi, bu holatlar soxta musbat natija sifatida qayd etildi.

Shunday qilib, bariy bilan rentgenoskopiyaning umumiy sezgirligi 84% ni, spetsifikligi esa 86% ni tashkil etdi. Rentgenologik tekshiruv davomida eng ko'p aniqlangan belgi „nisha simptomi“ bo'lib, u 18 nafar bemorda kuzatildi. Bundan tashqari, 9 nafar bemorda shilliq qavat relyefining buzilishi, 7 nafarida kontur deformatsiyasi va 5 nafarida kontrast moddaning evakuatsiya sekinlashuvi qayd etildi.

Olingan natijalar bariy bilan rentgenoskopiya oshqozon yarasini aniqlashda yuqori diagnostik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi, biroq kichik va yuzaki yaralarni aniqlashda endoskopiya ustunligi saqlanib qolmoqda.

Xulosa: Bariy bilan oshqozon yarasini tashxislashda yetarli diagnostik ahamiyatga ega usul bo'lib, ayniqsa yara joylashuvi va deformatsiyalarni aniqlashda samaralidir.

Biroq kichik o'lchamli yaralarni aniqlashda endoskopiya ustunlik qiladi. Shuning uchun bariyli rentgenoskopiya qo'shimcha diagnostik usul sifatida tavsiya etiladi.